

ORIENTAL JOURNAL OF
ACADEMIC AND
MULTIDISCIPLINARY
RESEARCH



Volume 1 Issue 1
2023



TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLAR VA KREATIV YONDASHUVLAR MUHIM OMIL SIFATIDA RAXMONOVA MADINAXON XABIBULLOH QIZI

**Shahrixon tumani 7-umumta'lif maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

ARTICLE INFO

Received: 14th October 2023

Accepted: 16th October 2023

Online: 16th October 2023

KALIT SO'ZLAR

interfaol metod, kreativ yondashuv, pedagogik mahorat, bilim, faollik, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pedagogik faoliyat jarayonida keng qo'llaniladigan interfaol metodining ta'lif tizimida tutgan alohida o'rniiga bag'ishlangan. Maqolada o'qituvchining dars jarayonida bu kabi metodlardan foydalana olish mahorati va kreativ yondashuvi bugungi kun yosh avlod vakillarining bilim va tafakkur doirasini oshirilishida yetakchi omil ekanligiga alohida to'xtalib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi amalga oshirilayotgan ta'lif sohasidagi islohatlarning asosiy maqsadi – barkamol shaxs va malakali mutaxassislarini tarbiyalashdan iboratdir[1]. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda, so'nggi bir necha yillar davomida mamlakatimizda ta'lif tizimini isloh etish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator strategik loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yangi, zamon talablariga mos keladigan o'quv dasturlari, hamda darsliklarini ishlab chiqishga katta urg'u berilishi natijasida, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyati uchun bir qator qulayliklar yuzaga kela boshladi. Olib borilayotgan amaliy harakatlar yosh avlodning bilim darajasini oshirish, muayyan darajada o'quv-bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga keng zamin yaratmoqda. Yoshlarning nafaqat yurtimiz miqyosida, balki jahon arenalarida o'z o'rniiga ega bo'lishi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Kelajak avlodni har tomonlama bilimli, tafakkurli qilib tarbiyalashda o'quv dargohlarida faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining o'rni beqiyos, albatta. Shuning uchun, o'quv jarayonlarini tashkil etishda kreativ yondashuv darsning asosiy omiliga aylanib bormoqda. O'qituvchilarning kreativlik bilan dars jarayonini tashkil etish qobiliyati, ayniqsa, ta'lif tizimini isloh etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, kreativ olib borilgan dars jarayoni darsning qiziqarlilik darajasini va samaradorlilagini oshirib, o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

O'qituvchi bir qator o'qitish metod va usullaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etishi bugungi kun avlodlarini, yangi zamon yoshlarini barkamol etib tarbiyalashda muhim ro'l o'ynaydi. Dars jarayonini tashkil etishga kreativ yondashish hamda o'quvchilar diqqat-e'tiborini jalg qila olishda o'qituvchi turli metodlardan foydalanadi. Xususan, ana shu metodlardan biri interfaol metodi hisoblanadi. "Interfaol" inglizcha "interactive" so'zidan olingan bo'lib, "inter"-“o'zaro”, "act"-“harakat, faollik” ma'nolarini bildiradi [2].

Bu metod dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchining faolligini oshirishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida dars samaradorligini yaxshilashga katta xizmat qiladi. Interfaol metod bugungi kunda keng qo'llaniladigan metod turi sifatida o'quvchilarning mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishga, tanqidiy va taxliliy tafakkur qilish darajasini oshirishga qaratilgan asosiy usuldir[3]. O'quvchilarning kreativ harakat va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanirish, kichik va katta guruhlarda birgalikda ishslash qobiliyatlarini namoyon etishi, bir-birlari bilan fikr almashishi, turli vaziyatlarga ijodiy yondashishi bugungi kunning muhim zaruriyati hisoblanadi. Bunda har bir guruh tarkibi a'zolarining yoshi, bilish darjasini inobatga olinadi. Bu jarayonda pedagogik kreativ fikrlarni amalda qo'llay olish ham o'qituvchidan pedagogik malaka va ko'nikmani talab qiladi. Muammoli vaziyatlarda innovatsion g'oyalarga alohida urg'u berish lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining pedagogik tajriba va malakasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Chunki interfaol metodlardan foydalanish haqiqiy ijodiy yondashuvni talab qiladi. Qanday vaziyatda qaysi metod yoki metodlardan foydalanilsa, o'quvchilarning aqliy va amaliy faolligi oshadi, qiziqishi ortadi, dunyoqarashi kengayadi degan savollarga ijodiy, kreativ yondashiladi. Dars muhitida o'quvchilar o'rtasida mavzu doirasida o'yinlar tashkil qilish, guruhlar tashkil qilish, guruh a'zolarining har biriga bilim doirasidagi nomutanosibliklar inobatga olingan holda ma'lum vazifa va topshiriqlar berilishi, topshiriq boyicha umumlashma xulosalar qilinishi, yutuq va kamchiliklari taxlil qilinishi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dars jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan muayyan omillar borki, ular salbiy vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ma'lum bir harakatni amalga oshirishda qo'rquv hissi, tavakkal qilishdan o'zini olib qochish, boshqalar manfaatlarini inobatga olmaslik, faqat o'z manfaatini ko'zlash kabi omillarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish usul va

uslublarini inobatga olishi lozim bo'ladi. Do'stona muhit yaratilishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar ustida ishlash rejaliari va takliflari berilishi kerak bo'ladi. Kreativ fikrlay olish qobilayatiga ega bo'lgan pedagog xodim o'z o'quvchilarida ham shunday qobilayatni shakllantira olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi ijodkorlik mahoratini amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. O'qitish jarayonida darsni qiziqarli va rag'batlantiruvchi strategiya bilan olib borilishi, muammoga innovatsion usullar bilan yondashish hamda kutiladigan yechim va natijalarini oldindan ko'ra olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pedagogik ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantirishda shu soha mutaxasslari bilan fikr almashish, ularni yutuq va kamchiliklarini chuqur taxlil qilish, yangi va yangi adabiyotlardan foydalana olish, kasbiy faoliyatni rivojlantirish juda muhim. Shuning uchun ham, doim o'qib-o'rGANISH, o'z ustida ishlash bugungi kunda pedagoglardan talab qilinadigan eng asosiy masala hisoblanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o'qituvchi kreativ va ijodkor bo'lsagina uning o'quvchilari ham shunday bo'la oladi. Buning natijasida zamon talab doirasiga javob bera oladigan dunyoqarashi keng, daxldorlik hissiga ega bo'lgan kelajak avlod shakllantiriladi. Tanqidiy, kreativ fikrlash qobilayati, tafakkur doirasi kengayib, o'z mustaqil fikriga ega, dunyoqarashi keng yoshlar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абдуллаев, У. (2023, March). ЎРТА ОСИЁ САКЛАРИГА ОИД ТАРИХИЙ-ЭТНОГРАФИК МАЪЛУМОТЛАР (манба ва адабиётлар тахлили). In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 3, pp. 87-94).
2. Абдуллаев, У. С. (2023, March). ИЗ ИСТОРИИ ТРАДИЦИОННОГО МЕЖЭТНИЧЕСКОГО ВЗАИМООТНОШЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 3, pp. 14-20).
3. Абдуллаев, У. С., & Каримова, М. А. (2014). основные направления традиционных межэтнических процессов в ферганской долине (XIX-XX в. в). *Социально-гуманитарный вестник Юга России*, (4), 3-7.
4. Dilnoza, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING PHILOSOPHY IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 118-123.
5. Gulomjonovna, N. D. (2023). Spiritual and Economic Factors of a Strong Family. *Telematique*, 7607-7611.
6. Каримова, М. А., & Нажимидинова, Д. Ф. (2023). ФАРЗАНД ТУГИЛИШИ ВА БОЛА ТАРБИЯСИ БИЛАН БОГЛИҚ УРФ-ОДАТЛАРДА ЗАРДУШТИЙЛИК ИЗЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 12(1), 69-76.
7. Нажимидинова, Д. Ф. (2023). ОИЛА ТИНЧЛИГИ ЖАМИЯТ ФАРОВОНИЛГИ. *Journal of new century innovations*, 12(1), 77-81.
8. Яқубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).

9. Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). A modern method of independent teaching the role of the distance education system information. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
10. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). THE ROLE OF COMMUNICATION AND INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
11. Baxtiyorovna, Y. B. (2023, March). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE-TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 3, pp. 143-148).
12. Якубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).
13. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Barnohon, Y. (2019). The Role of Interactive Methods For Improving Students Communicational Culture of Higher Educational Institutions. *International Journal of Scientific Research And Education*, 7(4).

